

Klinik laborator diagnostikada innovatsion texnologiyalardan foydalanish, muammolar va yechimlar, 2023



**KLINIK LABORATOR
DIAGNOSTIKADA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR**
**xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman**
18 aprel 2023 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

WWW.SSV.UZ

Toshkent tibbiyot akademiyasi WWW.TMA.UZ

bog'liq kranial polinevropatiyalarning diagnostik xususiyatlari	328
Muminov O.A., Kurbonova Z.Ch. Covid-19 klinik kechishining o'ziga xos xususiyatlari	329
Muminov O.A., Kurbonova Z.Ch. Covid-19 etiologiyasi va patogenetik mexanizmlari	331
Musayeva N.B., Islamova Z.S. Hemostasiological changes in rheumatoid arthritis	332
Mustanov J.A., Rasulov SH.M. Teri leyshmaniozini tashxislashda klinik va laborator tekshirishlarning ahamiyati	334
Nishonov A.A., Nuriddinova N.F. Laborator diagnostikada it texnologiyalarni joriy qilinishi	336
Nishonov A.A., Nuriddinova N.F. Implementation of innovative technologies in clinical laboratories	337
Otayeva G.A, Ibaydullayeva B.R., Maxmudova A.Yu., Kasimova E.A., Salimjonova D.X. O'pka kasalliklarining asoratlari kelib chiqishi va kasallik chaqiruvchi omillari	339
Po'latov M.Q, Rashidova N.S. Migren bilan kasallangan bemorlarda bosh miya o'zgarishlarini magnit rezonans tomografiya tekshiruvini orqali baxolash	341
Qaraxonova S.A, Murodov G'X, Ernaeva G.X. Xavotirli-fobik sindromda psixokorreksiya	342
Qaraxonova S.A, Ernaeva G.X. Taekvondo sportchilarida musobaqadan oldingi psixodiagnostik tekshiruvlarning ahamiyati	342
Qurbanova G.Ch., Babadjanova Sh.A. Diffuz toksik buqoq klinik simptomlari	344
Qurbanova G.Ch., Babadjanova Sh.A. Diffuz toksik buqoq klinik xususiyatlari	346
Qurbanova G.Ch., Babadjanova Sh.A. Diffuz toksik buqoqda giperkoagulyasiyaning patogenetik aspektlari	348
Qurbanova S.Y., Murodova I.A., Yo'ldasheva S.M. St.Aureus patogen shtammlaridan zardob olish texnologiyasi	350
Qutlimuratov I.Sh. Immunoglobulin e klinik ahamiyati	350
Rahimova Sh.M., Saidvaliyev F.S. Birlamchi bosh og'riqlaridagi abuzus bosh og'rig'ining klinik-nevrologik xususiyatlari	352
Rakhimbaeva G.S., Mallaev F.S. The role of atherocalcinosis in the development of atherothrombotic subtype of ischemic stroke. Management of medical treatment tactics	353

COVID-19 ETIOLOGIYASI VA PATOGENETIK MEXANIZMLARI

Muminov O.A., Kurbonova Z.Ch.
Toshkent tibbiyot akademiyasi,
2-Zangiota yuqumli kasalliklar shifoxonasi

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) butun dunyo bo'ylab tez tarqalgan, og'ir asoratlar bilan kechadigan yangi infeksiyon kasallikdir. Yangi koronavirus bir zanjirli RNK-tutuvchi virus bo'lib, Coronaviridae oilasi, Betacoronavirus avlodiga tegishli.

Molekulyar-genetik usullar yordamida SARS-CoV genomi nafaqat burun, tomoq, o'pka, balki parenximatuz xujayralar, qon tomir endoteliysida ham aniqlandi. Yangi koronavirus infeksiyasining patogenezi oxirigacha o'rganilmagan, kasallikning epidemiologiyasi, klinik xususiyatlari, profilaktikasi va davolanishi to'g'risidagi ma'lumotlar doim yangilanib bormoqda.

ACE2 koronavirus virulentligini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib, uning yordamida virus xujayralariga birikadi va xujayralarning ichiga kiradi. SARS-CoV-2 nishoni bo'lgan ACE2 alveotsitlarda, qon tomir endoteliysida, oshqozon epiteliysi bezsimon xujayralarida, enterotsit va kolonotsitlarda, podotsitlarda, buyrak proksimal kanalchalari xujayralarida, xolangiotsitlarda, gepatotsitlarda mavjud.

Organizmda koronavirus tarqalishi giperimmun reaksiya —«sitokin bo'roni» rivojlanishiga sabab bo'ladi: juda ko'p miqdorda yalig'lanish interleykinlari, jumladan S-reaktiv oqsil, zardob ferritini, laktatdehidrogenaza, D-dimer, 16, 2 interleykinlar, o'sma nekroz omili va xemokinlar ishlab chiqariladi. «Sitokin bo'roni» natijasida zararlanish maydoni kengayib, qon tomir endoteliysi zararlanadi va o'z antikoagulyant xususiyatlarini yo'qotadi, natijada endotelial hamda mononuklear xujayralar apoptozi kuchayadi va o'pkada rivojlangan mikrotomirlar spazmi o'pka perfuziyasini yomonlashtiradi.

SARS-CoV-2 infeksiyasida sitokin bo'roni endoteliy jaroxatlanishi va fibrinolitik tizimni cheklanishiga javoban gemostaz tizimi o'z protrombotik potensialini oshiradi. Bunda koronavirusning bevosita gemostaz tizimi komponentlariga ta'siri ham bo'lishi mumkin.

COVID-19 da giperkoagulyasiya rivojlanishi ko'plab asoratlar rivojlanishiga sabab bo'lib, koronavirus infeksiyasining og'ir kechishida kuzatiladi. Gemostaz faollashuvi va fibrin qobiq hosil qilish yalig'lanishni chegaralash uchun adaptiv mexanizmdir. Biroq sitokin bo'roni va makrofaglar faollashish sindromi giperyalig'lanishga olib keladi, natijada gemostaz tizimi ishdan chiqadi. Makrofaglar faollashish sindromi – yalig'lanishga qarshi reaksiyalar ketma-ketligi bo'lib, sepsisda tromboz rivojlanishi va yuqori letallikka sababchi bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, koronavirus infeksiyasi butun dunyo bo'ylab tez tarqalgan va global pandemiyaga sababchi bo'lgan kasallikdir. Uning qo'zg'atuvchisi yangi bir zanjirli RNK-tutuvchi virus bo'lib, Coronaviridae oilasi, Betacoronavirus avlodiga tegishli. COVID-19 inkubatsion davri 2–14 kun bo'lib, virus xavo-tomchi yo'li, xavo-chang yo'li, kontakt va fekal-oral yo'llar bilan

yuqadi. Virusning virulentligi SARS-CoV-2 ning tashqi membranasidagi S oqsil retseptor-bog'lovchi domenining angiotenzin-aylantiruvchi ferment 2 bilan ta'siri natijasida yuzaga keladi. Uning yordamida virus xujayralariga birikadi va xujayralarning ichiga kiradi. ACE2 alveotsitlarda, qon tomir endoteliysida, oshqozon epiteliysi bezsimon xujayralarida, enterotsit va kolonotsitlarda, podotsitlarda, buyrak proksimal kanalchalari xujayralarida, xolangiotsitlarda, gepatotsitlarda mavjud bo'lib, bu xujayralar virus nishoniga aylanadi. Natijada organizmda tizimli giperimmun reaksiya —«sitokin bo'roni» rivojlanib, endotelial disfunktsiya, tizimli vaskulit rivojlanishiga sabab bo'ladi va gemostaz tizimi ishdan chiqadi.

Adabiyotlar.

1. Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч., Муминов О.А. Частота тромбозных осложнений у больных с коронавирусной инфекцией // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. - №5. – С. 146-149.
2. Исомиддинова Н.К. и др. Жигар циррози ва COVID-19да коагуляцион гемостаз патологияси // Биофизика ва биокимё муаммолари, 2021. – В. 71.
3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Коронавирус инфекциясида гемостаз патологиясини лаборатор ташхислаш ва даволаш: услубий тавсиянома. Тошкент, 2022. - Б. 14-16.
4. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Оценка эффективности антиагрегантной терапии при коронавирусной инфекции // Pedagogical sciences and teaching methods. -2022. - №17. –С. 120-122.
5. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А., Муминов О.А. Лабораторный мониторинг патологии коагуляционного гемостаза у больных COVID-19 // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. №5. – С. 149-151.
6. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. и др. Характеристика функции тромбоцитов при COVID-19 // Тошкент тиббиёт академияси ахборотномаси. – 2021. -№1. – Б. 34-36.
7. Курбонова З.Ч., Муминов О.А. COVID-19 этиологияси ва патогенези тўғрисидаги замонавий талқин // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. - №5. – Б. 84-86.
8. Курбонова З.Ч., Муминов О.А. Коронавирус инфекцияси клиник хусусиятлари // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2022. - №5. – С. 87-89.
9. Babadzhanova Sh.A. Kurbonova Z.Ch. Pathology Of Vascular-Platelet And Coagulation Hemostasis In Coronavirus Infection (Literature Review) // Eurasian Medical Research Periodical. – 2022. - №14. – С. 149-156.
10. Kurbonova Z.Ch., Xo'shboqova G.O'. Alimova U.O. Covid-19 bo'lgan bemorlarda qon korsatkichlari // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. – 2021. - №1. – В. 31-34.

HEMOSTASIOLOGICAL CHANGES IN RHEUMATOID ARTHRITIS

Musayeva N.B., Islamova Z.S.

Tashkent Medical Academy, Tashkent, Uzbekistan

A study was made of the features of hemostatic disorders in patients with rheumatoid arthritis, depending on the activity and duration of the pathological